

DARSLARGA IJODIY YONDASHUV TA'LIM RIVOJIGA XIZMAT QILADI

Har bir millatning kelajagi, albatta, yosh avlodga berilayotgan sifatli ta'lim bilan belgilanadi. Chunki barkamol avlod tarbiyasida ustuvor vazifa sifatli ta'limni o'z vaqtida va o'rnida qo'llay bilishdadir. Bu borada yurtimizda olib borilayotgan ta'limga g'amxo'rlik alohida e'tirofga sazovordir. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilab qo'yilgan mezonlar asosida ta'limda samaradorlikka erishish har bir pedagog oldida turgan muhim omillardan biridir. Shunday ekan, umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda oliy o'quv yurtlarida tahsil berayotgan pedagoglar yoshlar dunyoqarashini o'stiradigan ilg'or pedagogik texnologiyalarni darslarga olib kirishi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilanganidek, "ta'limning yangi shakl va uslublari, o'quv, shu jumladan, differensiyalashgan dasturlarni amaliyotga joriy etish" i zarur.

O'qituvchi har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi, o'quvchilarni faollashishiga turtki beruvchi ta'lim usullarini ijod qilishi, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan unumli foydalanishi zarur va shart. Buning uchun, avvalo, ko'p izlanish talab etilib, dars maqsadlarini hamda bosqichlarini to'g'ri tashkillay olishi o'qituvchidan alohida mahorat talab qiladi. Darsda o'tilgan va yangi o'tilgan mavzuni o'quvchi **tez, qulay va oson anglashi** uchun o'qituvchi qo'llanadigan metod (uslub) va usullarni to'g'ri tanlay bilishi darkor. Bunda o'quvchilarning yoshi, fiziologik holatini inobatga olish talab etiladi.

Umumiy o'rta ta'limda darsning yetti tarkibiy bosqichi amalga oshiriladi:

1. Tashkiliy qism;
2. Uy ishini so'rash;
3. O'tilgan darsni xulosalash;
4. Yangi mavzuni o'tish;
5. Mustahkamlash;
6. Baholash;
7. Uyga vazifa berish.

Ushbu dars bosqichlari yangi pedagogic texnologiyalar bilan boyitilishi zarur. Buning uchun o'qituvchi noan'anaviy usullar ishlab chiqishi va uning samaradorligini ko'ra bilishi kerak. Darslarda o'qituvchi yo'llovchi vazifasida turishi zarur. Bu, ayniqsa, interfaol darslarni tashkil etishda ancha samara beradi.

Adabiyot darslari misolida bir qancha yangi usullarni ko'rsatib o'tamiz.

Masalan, o'tilgan darsni mustahkamlash yoki yangi mavzuni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganini tekshirish uchun **"Tezyurar savol-javob"** interfaol usulini qo'llash mumkin. Ushbu usulning shartlari quyidagicha:

Birinchidan, o'qituvchidan boshqa hech kim gapirmaydi;

Ikkinchidan, savollarga javob faqat bir so'z yoki so'z birikmasi bilan ifodalanadi;

Uchinchidan, tezkor savolga tezkor javob uzog'i bilan uch soniyada yozilishi darkor.

Berilayotgan savollar aniq, qisqa tarzda o'qilishi darkor;

To'rtinchida, har besh savoldan so'ng "Strelka" ishorasi beriladi. Unga ko'ra, yozilgan har besh savolga javobni soat harakatiga qarab o'quvchilar bir-birlarinikini ko'zdan kechiradilar hamda javobi yozilmagan savol raqamlariga belgi qo'yadi. Masalan, 5-sinfda "Hamid Olimjonning hayoti va ijodi" mavzusi:

1. Qachon tug`ilgan? (1909-yil)
2. Qayerda tug`ilgan? (Jizzax)
3. Birinchi she'riy to'plamining nomi? ("Ko'klam")
4. Qachon chop etilgan? (1929-yil)
5. O'sha vaqt necha yoshda bo'lgan? (20 yoshda)


"Strelka" (tekshiring).

Savol-javob shu tarzda davom etadi.

"Tezyurar savol-javob" interfaol usuli ajratilgan vaqtga qadar bir necha bosqichda davom etadi. Ushbu savol-javob besh bosqichda (jami 25 ta savol) amalga oshirilgan bo'lsa, bosqichlar sonini to'g'ri javoblar soniga bo'lamiz:

I – 3 ta, II – 4 ta, III – 5 ta, IV – 4 ta, V – 3 ta to'g'ri bo'lsa, baho $(3+4+5+4+3=19:5=3.8)$ taqriban "4" bo'ladi. Bor-yo'g'i 4-5 daqiqada 25-35 ta savollarga oydinlik kiritiladi. Ushbu usulning o'qituvchiga afzallik tomoni shuki, o'quvchilarni bir vaqtning o'zida ommaviy baholashi, mavzuning barcha tomonlarining qamralishi, kim qanday o'zlashtirganini aniqlashi mumkin. O'quvchiga esa tezkorlikning oshishi, qisqa javob ber olishi, olgan bilimlarining oson va tez mustahkamlanishiga turtki beradi.

Har bir darsda o'tilgan va o'tiladigan yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini o'stirish uchun noan'anaviy "kvadrat testlar" usulini qo'llash ancha samara beradi. Noan'anaviy "kvadrat testlar" usuli quyidagicha bo'ladi:





Belgilangan sterilka bo'yicha mantiqiy bog'liqlikni hisobga olgan holda "?" belgisi o'rniga kerakli ma'lumotni yozing?

Yechilishi: 1936-yilda yozilgan qandaydir hikoya haqida gap borayapti. Keyingi kvadratda esa Abdulla Qahhorning nomi keltirilishi noma'lum hikoya muallifini oydinlashtiradi. Demak, 1936-yil Abdulla Qahhor tamonidan yozilgan hikoya nomi so'rallyapti.

Javob: "Bemor". (So'roq (?) belgisi o'rniga aynan shu javob yoziladi.)

Ushbu "kvadrat testlar"ni bir necha murakkab darajalarini ishlab chiqish mumkin. Ayniqsa, guruhlar bilan ishlashda berilsa, raqobat kuchayib, tezkorlik yanada ortadi.

"Kvadrat testlar" ning bir necha murakkab darajalari quyidagicha tuzilishi mumkin:



Ushbu usulda o`quvchi o`zlashtirilgan bir necha mavzularning mantiqiy izchilligini tahlil etadi.

Yangi mavzu bo`yicha berilayotgan uyga vazifalar o`quvchilarni ijodkorlikka yo`llashi zarur. Mavzuni faqatgina ko`chirib kelishi o`quvchiga o`ta zerikarli mashg`ulotdir. Quruq ko`chirish (konspekt) da o`quvchi o`ziga kerakli ma`lumotlarni saralay olmaydi, faqatgina fan o`qituvchisidan gap eshitmaslik yoki baho olish uchungina bo`lib qolishi mumkin. Shunday ekan, har bir pedagog uy ishi berayotganda o`quvchilarning ijodkorligini oshirishga xizmat qiladigan topshiriqlar berib borishi zarur.

Masalan, biror bir asar yoki ijodkor mavzusi o`tilganda uy ishi sifatida konspekt qilishni “5x15 o`yini” shaklida berish mumkin. Unda 1 dan 5 gacha bo`lgan raqamlarda raqamlar qiymaticha ma`lumotlar (1 ga bitta, 2 ga ikkita, 3 ga uchta, 4 ga to`rtta, 5 ga beshta ma`lumot, ular qo`shib hisoblansa jami 15 ta ma`lumot) saralanadi. Raqamlardagi ma`lumotlar faqat bir axborotni tashkil etishi va ketma-ket izchillikni o`zida jo etishi zarur:

Mavzu: Masal haqida tushuncha (5-6-sinf)

1. Masal so`zi arab tilidan kirib kelgan;
2. * “Namuna”, “misol” deganidir;
* Didaktik, ya`ni axloqiy-ta`limiy janr;
3. * Voqealar majoziy obrazlar orqali ochib beriladi;
* Tanqidiy ruhda yozilib, unda jamiyat illatlari fosh etiladi;
* Hajviy tasvir, mutoyiba, kinoya orqali tasvirlanadi;
4. * Asosiy jihati shuki, u to`liq tarbiyaviy maqsadga yo`naltiriladi;
* Ezop birinchi masalchi hisoblanadi;
* Milodiy I va II asrlarida yashab o`tgan grek masalchilari Fedr, Babriy uning davomchilaridir.
* Fedr Ezop masallarini she`riy yo`l bilan lotin tiliga tarjima qiladi.
5. * Eng mashhur masalchilar: XVII asrda Fransiyada Lafonten, XVIII asrda Germaniyada Lessing, Gellert va XVIII-XIX asrlarda Rossiyada I. A. Krilov;
* Qadimgi Sharq adabiyotida “Panchatantra”, “Kalila va Dimna” majoziy yo`lda yozilgan.
* Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari to`liq majoziy xarakterda;

- * XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida yashab o'tgan Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari o'zbek adabiyotida katta o'rin tutadi;
- * XX asrda o'zbek adabiyotida masal janrida asarlar bitgan ijodkorlar: Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Yamin Qurbon, Sami Abduqahhor, Muxtor Xudoyqulov va boshq.

Ushbu konspekt usuli o'quvchiga ma'lumotlarni saralashni, ma'lumotlarni qisqa va lo'nda yozishni o'rgatib, esda saqlab qolish uchun qulayliklar yaratadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash yoki uyga vazifa qilib quyidagi usulda topshiriq berilsa ham maqsadga muvofiq. Unga ko'ra, 1 dan 5 gacha raqamlar olinadi:

Birinchi, mavzu bo'yicha 5 ta ma'lumot;

Ikkinchi, 4 ta yopiq test;

Uchinchi, 3 ta savol-javob;

To'rtinchi, 2 ta ochiq test;

Beshinchi, 1 ta "kvadrat test" tuziladi.

Zamonaviy ruhdagi noan'anaviy darslarni tashkil etish:

O'qituvchiga:

1. O'z ustida muntazam ishlashga;
2. Doimo ijodiy izlanishga;
3. Yangilik bilan ishlashga;
4. Ilg'or pedagogik usullarni amalyotga joriy etishga turtki beradi.

O'quvchiga:

1. Mustaqil izlanishga;
2. Erkin ijodiy yondashuvga;
3. Mavzuni erkin tadqiq qilishga;
4. O'z xohishi bo'yicha dars qilishga;
5. Qiziqishlari bo'yicha tahsil olishlariga turtki beradi.

Har bir darsda o'quvchilar faolligini ta'minlash, ularni ishlata bilish o'qituvchidan alohida mahorat talab etadi. Haqiqiy ijodiy dars esa senariylarga sig'maydigan jarayon bo'lib, bu jarayon nafaqat dars samaradorligini, balki o'quvchilar bilimining sifat samaradorligini oshishiga hamda ta'limning ijobiy jadallashuviga sabab bo'ladi. Shunday ekan, har bir pedagog o'zini sifatli ta'limning rivojlanishiga daxldor hisoblashi, kerak bo'lsa burchdor ekanini o'z vaqtida anglab yetishi lozim.

Jamoliddin Nurmuxammadov,
Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at
akademik litseyining ona tili va adabiyot o'qituvchisi

(tel: +99893 603-33-38)